



## TALABALARDA O'ZIGA ISHONCH TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

*Xamrayeva A.F.*  
*JDPU p.f.f.d*

**Tayanch so'zlar:** ishonch, determinant, imkoniyat, qobiliyat, kategoriya, ijtimoiy-ong, yosh davrlari, o'ziga xoslik.

**Ключевые слова:** уверенность, детерминанта, возможность, способность, категория, общественное сознание, возрастные периоды, идентичность.

**Key words:** confidence, determinant, opportunity, ability, category, social consciousness, age periods, identity.

**Резюме:**

Ushbu maqolada talabalarda o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantirishning psixologik determinantlari haqida fikr yuritilgan.

**Резюме:**

В данной статье рассматриваются психологические детерминанты уверенности студентов в себе.

**Summary:**

This article discusses the psychological determinants of students' self-confidence.

So'nggi yillarda jahon psixolog olimlari tomonidan ishonch fenomenini o'rganish tobora ko'payib bormoqda. Bu atama 1971 yilda S. Djurardom tomonidan taklif qilingan bo'lib, ishonch tushunchasini u shunday ta'riflaydi: "shaxsning o'zi haqida boshqa insonlarga nisbatan shaxsiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, ya'ni "xabar" ma'nosini bildiradi". Birinchi marta P. Laskou tomonidan "ishonch" hissini o'rganish uchun dastlabki qadamlar qo'yildi. U ishonchni o'z-o'zini anglash jarayonida o'zini namoyon qiladigan hodisa deb hisoblagan. Uning fikriga ko'ra, ishonch hissi insonning boshqa odamlarga va butun dunyoga nisbatan ochiq munosabat bildirishini ifodalaydi.

Uning nazariyasiga ko'ra, ishonch hissining shakllanishi dastlab bolalik davrida sodir bo'lib, u psixologik jihatdan sog'lom shaxsning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. E. Erikson shaxsning chaqaloqlik davrida ishonch va ishonchsizlik hissini shakllantirishga e'tibor qaratdi. E. Erikson yosh

davrlari bo'yicha insonning rivojlanish nazariyasida har bir yosh bosqichida rivojlanishi kerak bo'lgan fazilatlarini tasvirlab berdi. Uning nazariyasiga ko'ra, 1 yoshdagi bola, ijobiy-psixologik ijtimoiy vaziyatda bo'lishi, insonning hayotga bo'lgan asosiy ishonch hissini rivojlantirishga, keyinchalik esa boshqa barcha fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishini lozim. Agar ishonch hissi shakllanmagan bo'lsa, bunga qarama-qarshi tarzda ishonchsizlik hissi paydo bo'ladi. Bundan tashqari E. Erikson ishonch hissini shakllantirishda nafaqat boshqalarga, balki o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, o'z ehtiyojlari va istaklarini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish kerakligi eng muhim omil deb hisoblaydi. Bolaning dunyoga bo'lgan ishonch hissini anglashi, uni his qilishi shaxsning odamlar bilan uyg'unligining asosi sifatida, ular bilan muloqot qilish va parallel ravishda o'zini shaxs sifatida ta'kidlash qobiliyatining asosi sifatida belgilab, E. Erikson sog'lom shaxsning ko'rsatkichlaridan biri sifatida ishonch hissiga alohida ahamiyat beradi. Gumanizm psixologiyasining asoschisi A. Maslou ishonch hissini o'z-o'zini anglaydigan shaxsni shakllantirish uchun zarur psixologik omillardan biri deb hisoblaydi. U o'z-o'zini anglash nazariyasida ishonch hissini dunyoga bo'lgan munosabat shakli sifatida ko'radi va bolaning asosiy ehtiyojlarini qondirish natijasida ishonch hissi paydo bo'ladi, deb ta'kidlaydi. A. Maslou, o'z-o'zini namoyon qiladigan shaxs birinchi navbatda dunyoga ishonchli munosabatda bo'lishi kerakligini aytadi. Bundan tashqari, u ishonchni nafaqat atrofdagi dunyoga nisbatan munosabatsifatida, balki o'z-o'ziga bo'lgan munosabat sifatida ham ko'rib chiqish kerak deb hisoblagan. XX asrning 80-yillari oxirida psixologlar ishonch hodisasini o'rganishga dastlabki harakatlarni boshladi. Ishonch - bu inson psixikasini o'rganish uchun asosiy sub'ektiv yondashuv bo'lib, u shaxs shakllanishining hayot jarayonida mustaqil ravishda amalga oshiriladigan psixologik xususiyat sifatida tadqiq qilindi. Shu bilan birga, ishonch hissi o'z-o'ziga bo'lgan ishonch va atrofdagi dunyoga bo'lgan ishonchning mustahkamligi sifatida ham qaraladi. V. A. Petrovskiy o'zining kontseptsiyasida o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissini tuzilishini shunday tasvirlaydi: "ishonch - bu insonning voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati bilan o'z imkoniyatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkich, shaxsda ishonch hissi Ijtimoiy psixologiyada ishonch hissi do'stlik munosabatlari bilan bog'liq holda ko'proq rivojlanadi. A. N. Leontev "agar, shaxsda kuchli irodali harakatlar bilan birgalikda o'zigabo'lgan ishonch hissi rivojlantirilsa, inson har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda "asos" bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. Faoliyatga nisbatan ishonchsiz munosabatda esa, shaxs faoliyatda rivojlanishga erisha olmaydi" deb ta'kidlagan T. P. Skripkina uzoq yillar davomida ishonch hissini o'rganish bilan shug'ullandi. Uning fikriga ko'ra, ishonch hissi shaxsning



qiymat-semantik tuzilmalariga berilgan asosiy rolni anglash va shaxsning empirik tuzilmasining asosiy manbai sifatida belgilanadi. Uning ta'kidlashicha, har qanday shaxslararo munosabatlarda muloqot jarayoniga semantik maqom beradigan hodisa bu- ishonchdir. Ta'kidlash joizki, ishonch hissini o'rgangan olimlar fikrlariga ko'ra, ishonch hissi- shaxs munosabatlarining dastlabki asosi hisoblanadi. Ishonch va ishonchsizlik hodisalarini o'rganishda olimlar iqtisodiy vaziyatga vaboshqalarga qarab, qiymat yo'nalishlarini tanlash bilan, shaxsning yo'naltirilganligi bilan bog'liq holda ularning namoyon bo'lishining turli xususiyatlarini ko'rib chiqdilar. Ishonch va ishonchsizlik namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlaridan birigender farqdir. T. P. Skripkin tomonidan birinchi marta ishonch hissini namoyon qilishning gender xususiyatlari muammosi tadqiq etildi. Ishonch va ishonchsizlik hissi namoyon bo'lishining gender xususiyatlari haqidagi qiziqishlar va ko'plab savollarga javob topish maqsadida ishonch hissining jins xususiyatlarga bog'liqligini o'rganish maqsadida inson obrazi o'rganib chiqildi. Biz tomondan o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi ushbu hodisaning odamlar o'rtasida psixologik yaqinlikni yaratish va saqlab qolish uchun muhimligini nazariy asoslashda, ishonchning gender jihati, uning sifatli shaxslararo munosabatlarni qurishga ta'siri olimlar tomonidan to'liq o'rganilmaganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi OTM talabalarida ishonch va ishonchsizlik namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdir. Tadqiqot ob'ekti-shaxsda ishonch va ishonchsizlik muammosi. Tadqiqotning predmeti-yigit va qizlarda ishonch va ishonchsizlik hissining namoyon bo'lishi. Nazariy tadqiqotlar asosida biz ishonch va ishonchsizlik hissining namoyon bo'lishida gender farqlar borligini taxmin qildik. Tekshiriluvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonch ko'rsatkichlari - yuqori ishonch darajasi; 2 - o'rta ishonch darajasi; 3 - past ishonch darajasi.

Tadqiqot natijalaridan talabalarning ishonch darajasi asosan pastligini ko'rish mumkin. Keyin biz ishonch va ishonchsizlik hissini ajratib, izlanishlarimizni davom ettirdik. Buning uchun biz A.B. Kupreychenkoning "Dunyodaga, boshqa odamlarga, o'ziga bo'lgan ishonch va ishonchsizlikni o'rganish" metodikasidan foydalandik. Keltirilgan matematik mezondan foydalangan holda yigitlar va qizlarda ishonch va ishonchsizlik hissining ko'rsatkichlarini taqqoslab tahlil qilib, quyidagilarni aniqladik: Tekshiriluvchilarning ishonch va ishonchsizlik bo'yicha jinsiy tafovurlari Ushbu tadqiqotda ishtirok etgan qizlar va yigitlar o'rtasida ishonch darajasida bo'yicha statistik jihatdan sezilarli farq bor; shuning uchun ishonch fenomenining mazmuni va namoyon bo'lishi ular uchun har xil bo'ladi. 2. Ushbu

tadqiqotda ishtirok etayotgan qizlar va yigitlar o'rtasida ishonchsizlikdarajasini taqsimlashda statistik jihatdan sezilarli farq bor.

Shunday qilib, matematik mezonlardan foydalangan holda, biz yigit va qizlar o'rtasidagi ishonch va ishonchsizlik hodisalarining namoyon bo'lishida farqlar borligi haqidagi faraz tasdiqlandi, ishonch va ishonchsizlik hodisalarini o'rganishda insonning jins xususiyatlari kata ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish muammosi, uni shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlari bugungi kunda o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ta'lim sohasidagi yangiliklar, ayniqsa, kasbiy, shuningdek, mehnat sub'ektining uning kasbiy faoliyatiga munosabatini o'zgartirish zarurati bilan belgilanadi. Zamonaviy professionallikning yangi ma'nosi va uning shakllanishidagi shaxsning roli kasbiy rivojlanish qadriyatlarini tubdan qayta baholashni talab qiladi. Mutaxassisga, uning tayyorgarligi va bilimiga, sub'ektning o'z kasbi, kasbiy kelajagi va hayotiy g'oyalari, kasbiy rejalari uchun mas'uliyatiga talablar ortdi. "Bugungi kunda mustaqil Respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab – yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan o'ziga, boshqa insonlarga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z to'g'ri munosabatini bildira oladigan, ijodkor va tadbirkor bo'lmog'i lozim". Respublikamizda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy tamoyillar sifatida ta'limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish ularni asosi sifatida esa, milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar aniq belgilab olingan. Shu bilan birga, bugungi kunda kadrlarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan yaxlit ta'lim jarayoni "Ta'limning jahon miqiyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda" amalga oshirish lozim. Ta'lim tizimini takomillashtirishga unga mukammal madaniy kasbiy, ijtimoiy yo'naltirilgan amaliy va ijodiy mazmun berishga xizmat quluvchi zamonaviy ta'lim paradegmlaridan biri madaniy insonparvarlik yondashuvidir. Shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish muammosi va uning mohiyatining turli ko'rinishlari shaxs bilan birga paydo bo'ldi. Ushbu muammo uzluksiz rivojlanib, muammoli doirasini kengaytirib, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy o'zgarishlarga mos ravishda o'zgarib, o'zgarib bordi, bu esa ushbu hodisani o'rganishning farqlanishiga olib keldi. Shunday qilib, 1950-yillardan beri psixologlar o'z tadqiqotlarida shaxs hayotiy faoliyatining o'ziga xos turlariga qarab o'z-o'zini rivojlantirishni o'rganishga, kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishni o'rganishga murojaat qiladilar. Mutaxassislarni tayyorlash, kasbiy ko'nikma va malakalarni egallashning turli tizimlari mavjud. Kasbiylashtirish - mutaxassis shaxsini shakllantirishning



uzluksiz uzluksiz jarayoni bo‘lib, u kelajakdagi kasbni tanlagan va qabul qilgan paytdan boshlanadi va shaxs faol mehnat faoliyatini to‘xtatganda tugaydi. Kasbiylashtirishning eng qizg'in davri universitetda o‘qitish hisoblanadi. Kasbiylashtirishda eng muhim rolni kasbiy shaxsda ifodalangan kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishni shakllantirish o‘ynaydi. Kasbiy o‘ziga xoslik - bu "shaxsga kasbiy faoliyatda yaxlitlik, o‘ziga xoslik va ishonchni ta'minlaydigan ko‘p o‘lchovli va integral psixologik hodisa". Shaxsning o‘z qobiliyati, samaradorligi va shaxsiy ta'sirini his qilish kasbiy shaxsning shakllanishi haqida gapirish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Леонтьев А. А. Психология общения. Тарту, 1974.
2. Ильин Е. П. Психология доверия. СПб.: Питер, 2013. 288 с.
3. Маслоу А. Самоактуализация. Психология личности. М., 1982.
4. ALIMOVA, G.(2020). Kichik maktab yoshida o‘quvchi shaxsining psixologik pedagogic rivojlanish xususiyatlari. Pedagogik mahorat, 103-107.
5. Alimova G., & Alimova, A. (2020). Socio-economic conditions foreffective entrepreneurial activity. Імператив соціального партнерства освітньо-науковому просторі:євроінтеграційні та регіональні виклики сьогодення, 246-250.
6. Jalilova S. X. (2020). Shaxs iste'molchilik xulqining psixologikxususiyatlari.Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiyaxborotlari ilmiy-nazariy jurnali, 240-244.
7. Taskarayevna N. Z. (2020). Maktabgacha yosh davridagi bolalarda milliyxususiyatlarni shakllantirish yo‘llari.Oriental Art and Culture, (II), 79-85.
8. Nishanova Z. T. (2020). Ommaviy axborot vositalari xodimlarining shaxs milliytarbiyasi oldidagi vazifalari.Science and Education,1(2), 358-363.
9. Нишанова Х. В. (2019). Развитие интеллектуальных способностей устудентов вузов.Наука и образование сегодня, (6-2 (41)), 58-59.